

**FITRAT ASARLARIDA IJTIMOY-SIYOSIY MUNOSABATLARNI IFODALOVCHI
O'ZLASHMA LEKSEMALAR**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14187462>

Mirzatillayeva Sayyoraxon Zokirjon qizi

Farg'ona davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Abdurauf Fitrat asarlarida qo'llanilgan o'zlashma leksemalar o'rganilib, ularning ijtimoiy-siyosiy munosabatlarni ifodalovchi turi leksik-semantik guruh sifatida alohida tahlil etilgan.*

Kalit so'zlar: *o'zlashma leksemalar, jamiyat, leksik birliklar, shaxs mikromaydoni, arxisema, leksik-semantik guruh.*

SPECIFIC LEXEMAS EXPRESSING SOCIO-POLITICAL RELATIONS IN FITRAT'S WORKS

Abstract: *In this article, the borrowed lexemes used in the works of Abdurauf Fitrat are studied, and their type representing socio-political relations is separately analyzed as a lexical-semantic group.*

Keywords: *acquired lexemes, society, lexical units, personal microfield, archiseme, lexical-semantic group.*

**ZAIMSTVOVANNYE LEKSEMY, PREDSTAVLYAYUSHIYE SOTSIALNO-POLITICHESKIE
OTNOSHENIYA V RABOTAX FITRATA**

Annotatsiya: *V dannoy state izuchayutsya zaimstvovannyye leksemy, ispolzovannyye v proizvedeniyax Abduraufa Fitrata, i otdelno analiziruyetsya ix tip, reprezentiruyuyushiy obshchestvenno-politicheskie otnosheniya, kak leksiko-semanticheskaya gruppya.*

Klyuchevyye slova: *priobretennyye leksemy, obshchestvo, leksicheskie yedinisy, lichnoe mikropole, arxisema, leksiko-semanticheskaya gruppya.*

INTRODUCTION

So'nggi tadqiqotlarda til va jamiyat o'rtasidagi munosabat, ularning bir-birga bo'lgan ta'siri yaqqol ko'zga tashlanmoqda. Jamiyatning bir bo'lagi hisoblanmish til va inson aloqasi, ular yashayotgan muhit va jarayon ilmiy tadqiqotlarning asosi bo'lib xizmat qilmoqda. Til va jamiyatning o'zaro uzviyligi masalasi tilning ma'lum bir leksik qatlamini o'rganishga doir tadqiqotlarda ochib berilyapti.

Ijtimoiy-siyosiy o'zlashma leksemalarni o'rganish ham shular jumlasidandir. Ijtimoiy-siyosiy leksikani o'rganish borasida o'zbek tilshunosligida qator olimlarning ishlari ko'zga tashlanadi. Jumladan, H.Dadaboyev, A.O'razboyev, Z.Isaqova[1.1] o'zbek tilining XX

asrgacha bo'lgan ijtimoiy-siyosiy leksikasini o'rganishga e'tibor qaratgan. XX asrdan mustaqillikkacha bo'lgan davrdagi ijtimoiy-siyosiy leksikaning ayrim masalalari A.Hojiyev, G.Muhammadjonova, N.G'ulomovalarning tadqiqotlarida ko'zga tashlanadi[1.2] Mustaqillikdan keyingi yillarda o'zbek tili leksikasini o'rganishda qator ishlar yuzaga keldi.

Ijtimoiy-siyosiy leksikani to'liq va mukammal ravishda tadqiq etgan olim Adiba To'raxo'jayeva hisoblanadi. A.To'raxo'jayeva "Mustaqillik sharoitida o'zbek tili ijtimoiy-siyosiy leksikasining taraqqiyoti" nomli dissertatsiyasida ijtimoiy-siyosiy leksikaning o'zbek tili sistemasidagi o'rni va taraqqiyoti, maydon nazariyasi va ijtimoiy-siyosiy leksikaning o'zaro munosabati, ijtimoiy-siyosiy lug'aviy birliklarning taraqqiyoti, "davlat boshqaruvi" va "ijtimoiy-siyosiy munosabatlar" mikromaydonlarining leksik-semantik xususiyatlari tadqiq etilgan. Leksik birliklarning shajaraviy tabiatini yoritishga e'tiborning qaratilishi leksik sistemani makro va mikrosistemalar butunligi, ya'ni sistemalar sistemasi sifatida talqin qilish imkoniyatini tug'dirdi[3.19]. Ya'ni tilning lug'aviy birliklarini maydonlarga bo'lib o'rganish yuzaga keldi. Maydon nazariyasini o'zbek tilshunosligida atroflicha tadqiq etgan olimlardan biri Sh.M. Iskandarovadir. U o'zining "O'zbek tili leksikasini mazmuniy maydon asosida o'rganish (shaxs mikromaydoni)" nomli doktorlik dissertatsiyasida leksik sathning sistemalar sistemasi ekanligini, uning son-sanoqsiz maydonlardan tashkil topishini ko'rsatib o'tgan va shaxs mikromaydoni misolida leksemalarning harakatlanish doiralarini ochib bergan[4.10].

THE MAIN FINDINGS AND RESULTS

"Ijtimoiy-siyosiy" o'zlashmalarning semantik maydoni o'zining tarkibiga qator LSG hamda LSQ larni birlashtiradi. "Ijtimoiy-siyosiy" arxisemasi asosida birlashgan leksik birliklar yaxlit bir maydonni tashkil qilar ekan, bu maydonga mansub barcha leksemalar sememasida "ijtimoiy-siyosiy" integral semasi ishtirok etadi. Har bir maydon a'zosida takrorlanuvchi mazkur sema bu leksemalarni bir maydonga birlashtirish imkonini beradi[5.15]. Ijtimoiy-siyosiy o'zlashma leksemalarning semantik maydonini "davlat boshqaruvi" hamda "ijtimoiy-siyosiy munosabatlar" kabi mikromaydonlarga, bu mikromaydonlar esa o'z navbatida muayyan ma'no umumiyliigi asosida birlashgan LSG (leksik-semantik guruh)larga ajratildi. Biz dastlab Fitrat publitsistikasidagi "ijtimoiy-siyosiy" o'zlashmalarni keltirib o'tamiz va ularni komponent tarzda tahlil qilamiz.

Fitrat publitsistikasidagi ijtimoiy-siyosiy munosabatlar doirasidagi o'zlashma leksemalar

Duma, federatsiya, firqa, partiya, majlis, syezd, hukumat, muxtor, muxtoriyat, mashvarat, konsul, konsulxona, muhokama, jumhuriyat, imperiya, imperator, mahkama, qaror, nota, hukm, tashkilot, idora, shahar, vazuratpanoh, demokratiya, kapitalizm, feodalizm, imperializm, marksizm, bolshevizm, sotsializm, reformatsiya, reformist, kapitalist, imperialist, totalitarizm, istilo, tajovuz

Garchi komponent tahlilda alohida olingan so'z emas, balki to'liq tarkibdagi leksik-semantik guruhlariga e'tibor qaratisa-da, bunday tahlil "oxir-oqibatda alohida so'zlarning

ma'no hajmini, uning barcha holatlarda namoyon bo'ladigan semantik xususiyatlarini aniqlash" imkonini beradi[6.151].

Shuning uchun "davlat boshqaruvi" mikromaydoni tarkibiga "organ", "tuzum", "mustaqillik", "lavozim", hudud", "hujjat", "mustamlaka" kabi yettita leksik-semantik guruhlarini kiritamiz. Keltirilganlar ichidan "davlat boshqaruvi" mikromaydonining "organ" arxisemali leksik-semantik guruhi eng ko'p leksemalarni o'z ichiga qamrab oladi.

A.To'raxo'jayeva o'zining nomzodlik ishida "organ" arxisemasi "davlat tizimidagi shakllar" umumiy semasi ostida 30 dan ortiq leksik birlikni bir LSGga birlashtiradi degan fikrni keltirib o'tgan. Biz olimaning ishi asosida quyidagi ishlarni amalga oshirdik. "Organ" arxisemasi asosida yuqoridagi o'zlashmalarni quyidagicha LSGlarga ajratib chiqamiz:

- a) mazmun jihatdan yaqin leksemalar: tashkilot, idora, mahkama;
- b) "oliy organ" semasiga ko'ra: Duma, hukumat,;
- d) "organ" arxisemasi bilan bevosita zidlanish hosil qiluvchi leksemalar: partiya, firqa; "Davlat boshqaruvi" mikromaydoniga mansub qolgan leksik-semantik guruhlar ham

muayyan differensial belgilar asosida LSGlarga ajratiladi.

1. "Tuzum" arxisemali LSG lari quyidagicha:

- a) "konstitutsiyaga asoslanish" semasiga ko'ra: demokratiya
- b) "yakkahokimlik" semasiga ko'ra: totalitarizm, mustabid,
- d) "boshqaruv shakli" semasiga ko'ra: jumhuriyat, federatsiya
- e) "boshqaruv usuli, yo'nalishi" semasiga ko'ra: kapitalizm, feodalizm, imperializm, marksizm, bolshevizm, sotsializm, reformatsiya.

2. "Lavozim" arxisemali LSG lari quyidagicha:

- a) "tayinlov" semasiga ko'ra: imperator, vazuratpanoh, vazir, hokim;

3. "Hudud" arxisemali LSG lari quyidagicha:

- a) "ma'muriy-hududiy bo'linma" semasiga ko'ra: tuman, viloyat;
- b) "manzilgoh" semasiga ko'ra: shahar;

4. "Mustamlaka" arxisemali LSG lari quyidagicha:

- a) "bosib oluvchi davlat" semasiga ko'ra: imperiya;
- b) "bosib olish harakati" semasiga ko'ra: istilo, tajovuz;
- d) "bo'ysundirish siyosati" semasiga ko'ra: mustamlaka, muxtor, muxtoriyat;

5. "Hujjat" arxisemali LSG lari quyidagicha:

- a) "farmoyish" semalariga ko'ra: qaror, farmon, hukm;
- b) "xalqaro" semasiga ko'ra: nota;

Ijtimoiy – siyosiy munosabatlar deganda davlat va jamiyatni boshqarish, fuqarolik munosabatlarini amalga oshirish nazarda tutiladi. "Ijtimoiy-siyosiy munosabatlar" mikromaydoni tarkibiga "yig'ilish", "saylov", "shaxs", "uyushma", "tartib", "jarayon", "tabaqa", "diplomatiya", "guruh", "oqim", "saylov", "tartib", "jarayon" kabi leksik-semantik guruhlar kiritiladi. "Yig'ilish" arxisemali LSG ning barcha leksemalari uchun "shaxslarga xoslik", "to'planish" va "muhokama" semalari barqaror belgi hisoblanadi[5.18].

“Yig’ilish” LSG leksemalari sememalarida “uslubiy xoslanganlik”, “rasmiylik” semalari ko’p takrorlanib keladi.

1. “Yig’ilish” arxisemali birliklarni LSGlarga ajratish mumkin:

- a) “tashkilot miqyosi” semasiga ko’ra: majlis, muhokama, muzokara;
- b) “keng vakolat” semasiga ko’ra: syezd, mashvarat;

2. “Uyushma” arxisemali LSG lari quyidagicha:

- a) “davlatlar ittifoqi” semasiga ko’ra: federatsiya,

3. “Guruh” arxisemali LSG lari quyidagicha:

- a) mazmunan yaqin: guruh, jamoa

4. “Oqim” arxisemali LSG lari quyidagicha:

a) “ijtimoiy-siyosiy nazariyalar” semasiga ko’ra: bolshevizm, fanatizm, marksizm, panturkizm, panislomizm,

5. “Shaxs” arxisemali LSG lari quyidagicha:

- a) “maxsus kishi” semasiga ko’ra: missioner;
- b) “tarafdor” semasiga ko’ra: diniy reformist, imperialist, kapitalist;

6. “Diplomatiya” arxisemali LSG lari quyidagicha:

- a) “vakillik” semasiga ko’ra: konsulxona;
- b) “shaxs” semasiga ko’ra: konsul;

CONCLUSION

Yuqorida keltirilgan ijtimoiy-siyosiy o’zlashma leksemalarning semantik maydon hamda LSG larga birlashuvida assotsatsiyalar muhim o’rin kasb etadi. Ya’ni leksemalar o’rtasidagi sinonimik va antonimik, gipo-giperonimik, graduonimik munosabatlar asosida semantik maydonlarni hosil qilamiz. Sh.Iskandarovanning e’tirof etishicha, bir paradigamaga mansub bo’lgan a’zolar umumiy (birlashtiruvchi) belgiga ega bo’lish bilan birga, har qaysisi bir-biridan farq qiladigan xususiy belgilarga ham ega bo’ladi. Xususiy belgilarga ega bo’lish paradigma a’zolarining o’zaro zidlanishiga va alohida til birligi sifatida yashashiga imkon beradi[4.19]. Bundan ko’rinadiki, paradigma ma’lum ma’noda nisbiy tushunchadir. So’zning sinonimik qatorini tuzishda lisoniy omillardan tashqari nolisoniy omillar ta’sir ko’rsatadi. Zidlanish ham so’zning ayrim xususiy ma’nolari bilan bog’liq bo’ladi[7.98]. Yuqorida mustaqillikdan oldingi davrda iste’molda bo’lgan ijtimoiy-siyosiy o’zlashma leksemalar ko’rib chiqildi. Jamiyat taraqqiy etar ekan yangi ijtimoiy-siyosiy o’zlashmalarning tilimizga kirib kelishi davom etadi. Bu jarayonda ayrim so’zlar eskirib o’rnini mutlaqo yangi so’zga bo’shatib beradi. Ya’ni tilning bu qatlami to’xtovsiz harakatda bo’lib turadi.

REFERENCES:

1. Dadaboev H. Ogahiy tarixiy asarlaridagi ijtimoiy-siyosiy terminlar xususida // O’zbek tilshunosligining dolzarb masalalari. Ilmiy maqolalar to’plami. –Toshkent, 2009. – №3. – B.21-24; Dadaboev H. Alisher Navoiy asarlaridagi ijtimoiy-siyosiy terminlarning eski

turkiy obidalar leksikasiga munosabati // Alisher Navoiy tavalludining 550 yilligiga bag'ishlangan ilmiy konferensiya tezislari. – Toshkent: Fan, 1991. – B.68-69.

2. Muxammadjonova G. O'zbek tili leksikasi taraqqiyotining ba'zi masalalari. – Toshkent: Fan, 1982. – 87 b.; Gulyamova N.G. Russkie leksicheskie zaimstvovaniya v uzbekskom yazyke. – Toshkent: Fan, 1985; Hojiev A. Sovet davrida o'zbek adabiy tilining taraqqiyoti. 3-tom. – Toshkent: Fan, 1991. – 186 b.

3. Apresyan V.Yu. Opyt klasternogo analiza: russkie i angliyskie emotsionalnye konsepty // Voprosy yazykoznaniya. – Moskva, 2011. – №1. – S.19.

4. Iskandarova Sh. O'zbek tili leksikasini mazmuniy maydon asosida o'rganish (shaxs mikromaydoni). – Toshkent, 1999.

5. To'raxojaeva A.X. Mustaqillik sharoitida o'zbek tili ijtimoiy- siyosiy leksikasining taraqqiyoti. Filol.fanl.nom.diss.avto-ref. T., 2012. – B.15.

6. Bushuy T., Safarov Sh. Til qurilishi: Tahlil metodlari va metodologiyasi. – Toshkent: Fan, 2007. –B. 151.

7. Qo'ziev U. O'zbek tilidagi izohli lug'atlarda o'zlashma so'zlar tahlili.- Namangan:2016.-B.98.